



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Диларам Иноятова НЕМЕЦКАЯ ДИАСПОРА УЗБЕКИСТАНА: СОХРАНЕНИЕ ЭТНИЧЕСКОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ.....	5
2. Лазизахон Алиджанова ДИНЛАРАРО МУЛОҚОТ ВА БАҒРИКЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ВА ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ.....	11
3. Umida Azamjonova TARIXIY ME'MORIY YODGORLIKLARNI KONSERVATSIYA VA TA'MIRLASH METODLARI TANLILI (XORIJIY TAJRIBALAR MISOLIDA).....	16
4. Javlonbek Begaliyev O'ZBEKISTONDA SOVET DAVRIDA SAN'AT VA MADANIYAT YO'NALISHLARIDA MUALLIFLIK HUQUQI MASALASI BILAN BOG'LIQ AYRIM MULOHAZALAR (1930-1970 YILLAR MISOLIDA).....	20
5. Azizbek Muminov FARG'ONA VODIYSI TABIIY OBYEKTLARINING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA ULARNING ZAMONAVIY TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI.....	26
6. Фируза Мухитдинова ИНСОННИНГ ЎЗ ҲУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ҲУҚУҚИ – ЯНГИЛАНГАН КОНСТИТУЦИЯДА МУСТАҲКАМЛАНГАН АСОСИЙ ҚОИДА.....	31
7. Sardorbek Rahimberdiyev MEHNAT MIGRANTLARINING IJTIMOIIY HOLATI VA MADANIY IDENTIFIKATSIYASI (KOREYADAGI O'ZBEKLAR MISOLIDA).....	42
8. Baxtiyar Kurbanov 1941-1943-YILLARDA TEMIR YO'L TRANSPORTI ISHINING FRONT VA XALQ XO'JALIGI MANFAATLARI UCHUN QAYTA QURILISHI.....	48
9. Ғайратбек Хайдаров, Мухитдин Саттаров ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛИДАГИ ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ.....	55
10. Гуласал Шакирова ПОНЯТИЕ И ЭВОЛЮЦИЯ МЕДИАКОНВЕРГЕНЦИИ В ПОЛИТИЧЕСКИХ КОММУНИКАЦИЯХ.....	60
11. Shuxrat Toshturov O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKOLOGIYA VA BIOLOGIK RANGBARANGLIKNI SAQLASH SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIGI.....	71
12. Пётр Чублуков РОЛЬ ЗАВОЕВАТЕЛЬНЫХ ПОХОДОВ АЛЕКСАНДРА МАКЕДОНСКОГО В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ ЭЛЛИНИЗМА НА ТЕРРИТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ.....	79



Azizbek Ziyoviddinovich Muminov,
Yangi Asr Universiteti
Akademik bo'lim boshligi, tarix fanlari
bo'yicha falsafa doktori PhD, prof v.b
m.azizbek14051983@gmail.com

FARG'ONA VODIYISI TABIIY OBYEKTLARINING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA ULARNING ZAMONAVIY TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

For citation: Azizbek Z. Muminov. THE HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL CLASSIFICATION OF NATURAL OBJECTS IN THE FERGANA VALLEY AND THEIR SIGNIFICANCE FOR THE CONTEMPORARY DEVELOPMENT OF TOURISM. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 12.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18035098>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi landshaftining xilma-xilligi, flora va fauna boyligi kabi tabiiy omillar tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy izlanishlar asosida o'rganilgan. Hududning o'ziga xos tabiiy-geografik sharoitlari, ekologik holati, suv va yer resurslari, qo'riqxonalar, tabiat yodgorliklari hamda landshaftlarning turizm salohiyatini oshirishdagi o'rni ko'rib chiqish orqali resurslardan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish va turizmdagi o'rni bo'yicha ilmiy xulosalar va takliflar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, turizm, ekoturizm, tabiiy resurslar, landshaftlar, tarixiy manbaalar, rekreatsion salohiyat, barqaror rivojlanish.

Азизбек Зиёвиддинович Муминов,
Университет Новый Век
Начальник
академического отдела, доктор философии (PhD)
по историческим наукам, и.о. профессора
m.azizbek14051983@gmail.com

ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ПРИРОДНЫХ ОБЪЕКТОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННОМ РАЗВИТИИ ТУРИЗМА.

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе исторических источников и современных научных исследований изучены такие природные факторы, как ландшафтное разнообразие Ферганской долины, богатство флоры и фауны. Путём рассмотрения природно-географических условий региона, его экологического состояния, водных и земельных ресурсов, заповедников, памятников природы, а также роли ландшафтов в повышении

туристического потенциала представлены научные выводы и рекомендации относительно эффективного использования данных ресурсов, их охраны и значения в развитии туризма.

Ключевые слова: Ферганская долина, туризм, экотуризм, природные ресурсы, ландшафты, исторические источники, рекреационный потенциал, устойчивое развитие.

Azizbek Z. Muminov,
New Century University, Head of the Academic
Department, PhD in History, Acting Professor
m.azizbek14051983@gmail.com

THE HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL CLASSIFICATION OF NATURAL OBJECTS IN THE FERGANA VALLEY AND THEIR SIGNIFICANCE FOR THE CONTEMPORARY DEVELOPMENT OF TOURISM

ABSTRACT

In this article, natural factors such as the landscape diversity of the Fergana Valley and its rich flora and fauna are examined on the basis of historical sources and contemporary scientific research. By analyzing the region's natural-geographical conditions, its ecological state, water and land resources, nature reserves, natural monuments, as well as the role of landscapes in enhancing tourism potential, the study presents scientific conclusions and recommendations regarding the effective use, conservation, and significance of these resources for tourism development.

Index Terms: Fergana Valley, tourism, ecotourism, natural resources, landscapes, historical sources, recreational potential, sustainable development.

1. Dolzarbligi:

Jahonda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan eng muhim tarmoqlardan biri, shubhasiz turizm sohasi hisoblanadi. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan tabiiy turizm tarmoqlarining imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, mazkur tarmoqlarni yanada takomillashtirish imkoniyatlari ortib bormoqda. Farg'ona vodiysi tabiiy obyektlarining ilmiy asoslangan tasnifi, ularning tarixiy-geografik shakllanish bosqichlarini ochib berish, hududning rekreatsion salohiyatini aniqlash hamda turizmni rivojlantirish strategiyalarida ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini belgilash – zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim vazifalaridandir.

Ekoturizmni rivojlantirishda ekotizimlarning barqarorligini saqlash, bioxilma-xillikni va tabiat yodgorliklarini asrashni ilmiy asosda tashkil etish, uni barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Mamlakatimizda keying yillarda turizm sohasida sezilarli o'zgarishlar soha tarmoqlarni kengayishini ko'rishimiz mumkin, bu esa tabiiy obyektlarni turizm resursi sifatida kengroq jalb qilish imkonini berdi. "... Iqtisodiyotni rivojlantirib, yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga ekoturizmni rivojlantirish atrof-muhit tozaligi va musaffoligini saqlashga, aholi o'rtasida kasalliklarni kamaytirishga o'z hissasini qo'shadi" [1]. Ekologik muvozanatning buzilishi, tabiiy landshaftlarning qisqarishi, suv resurslaridan foydalanishning intensivlashuvi kabi global muammolar sharoitida Farg'ona vodiysi tabiiy obyektlarini o'rganish va ularni asrash masalasi yanada dolzarblik kasb etmoqda. Tabiiy merosning ilmiy tasnifi va uning turizm tarmog'iga integratsiyasi hududning iqtisodiy rivojlanishiga, aholining farovonligiga va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Metodlar.

Maqolada umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, holislik tamoyillari asosida Farg'ona vodiysida ekoturizmni hududiy rivojlantirish istiqbollari, tabiiy obyektlarining tarixiy-geografik tasnifi va ularning zamonaviy turizm rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan.

3. Tadqiqot natijalari.

Farg'ona vodiysi O'rta Osiyoning eng go'zal va boy tabiiy manzarasiga ega bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi. Vodiyning tabiiy ob'yektlari (tog'lar, daryolar, o'rmonlar, ko'llar,

buloqlar) nafaqat uning ekologik muhimligini, balki turizm salohiyatini ham belgilaydi. Farg'ona tabiiy geografik hudud sifatida Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, atrofi tog'lar bilan o'ralgan. Vodiy tabiati go'zal va maftunkor, noz-ne'matlarga boy, jannatmakon o'lka bo'lib, uni «O'rta Osiyo durdonasi» deb atashadi [2]. Vodiyning xaritadan ko'rinishi bodom shaklida bo'lib, shimoli g'arbdan Mo'g'ultog', Qurama tog' tizmalari, shimoldan Chotqol tizmasi, sharqdan Farg'ona tizmalari, janubdan esa Oloy va Turkiston tizmalari o'rab turadi.

Farg'ona vodiysi tog'lari o'zining tabiiy go'zalligi, tarixiy yodgorliklari va ekologik muhitining xilma-xilligi bilan turizm rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarga ega. Vodiyning tog' va tog' oldi hududlari tabiatining havosining tozaligi, o'simliklar dunyosining xilma-xilligi, daryolarida oqayotgan suvlarning ziloligi dam oluvchilarining o'ziga jalb etadi [3]. Farg'ona vodiysida joylashgan Chortqol, Qurama, Farg'ona, Turkiston va Oloy tog'larining yonbag'irlarida, Podshootasoy havzasida Ko'ksaroy turistik bazasi, Kosonsoyda Kosonsoy sihatgohlari hamda Chodaksoy, G'ovasoy, Chodaksoy, Shoximardonsoy, Sox, Quvasoy havzalarida qisqa muddatli dam olish maskanlari olish maskanlari tashkil etilgan bo'lib, ular kishilarning hordiq chiqarishda muhim ahamiyatga egadir [4]. Shuningdek vodiyning Mingdon, Holmiyon, Qadamjoy, Shohimardon, So'x kabi qishloqlar atrofida qadimda archazorlar bo'lganligini isbotlovchi to'nkalar saqlanib qolgan [5]. Farg'ona vodiysi qadimdan sug'orma dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan hudud bo'lib, mahalliy aholi tabiatdan keng foydalanib kelgan. O'rmonlar yog'ochchilik, qurilish, hunarmandchilik va tibbiyot uchun manba bo'lgan. Bundan tashqari, tarixiy manbalarga ko'ra, vodiyning tog'li va o'rmonli hududlari ovchilik va dam olish maskanlari sifatida ham ishlatilgan.

Tarixiy jihatdan ham bu hudud Buyuk Ipak yo'li yo'nalishidagi muhim maskanlar qatoriga kiradi. Farg'ona vodiysi tog'laridan turizm maqsadida foydalanish uzoq tarixga ega bo'lib, bu jarayon qadimgi davrlardan boshlab zamonaviy turizmga bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu hudud tabiiy manzaralari, strategik yo'llari va tarixiy obidalari bilan hamisha sayohatchilar va savdogarlar e'tiborini tortib kelgan.

O'zbekiston Respublikasining ekoturistik holati, imkoniyati va kelajak istiqbollari qarang A.Nig'matov va N.Shomuratovlar tomonida hududlarning ekoturistik tavsifi umumlashtirilib mamlakat hududi XIV ekoturistik rayonga ajratilgan [6]. Jumladan, Farg'ona ekoturistik rayonining maydoni butun Farg'ona vodiysining hududlarini qamrab oladi. Bu vodiy tabiatining betakrorligi, maftunkorligi va turli-tumanligi qadimdan dunyoga ma'lum. Bu ekoturistik rayonda ekoturizmni rivojlantirishning katta salohiyati va imkoniyatlari bor. Shuningdek, 1991 yil tashkil etilgan "Farg'onaturizm" Aksionerlik jamiyatining faoliyati Farg'ona viloyatida turizmni rivojlanishida xizmat qilgan [7]. Farg'ona viloyatida ichki turizmni rivojlantirish maqsadida "Shohimardon qishlog'ida madaniy-ma'rifiy maskanlarni ta'minlash va obodonlashtirish to'g'risida" viloyat hokimining 1994 yil 7 iyun №182-son qarori e'lon qilingan [8].

Ekoturizm va tabiiy boyliklarni asrab-avaylash maqsadida Pop, Chust, Marxamat, Rishton, Yozyovon va Oltiariq tumanlarida ekoturistik marshrutlar tashkil etilgan. Kosonsoy va Chodak qishloqlari tabiiy landshaftlari bilan sayyohlarni qabul qilmoqda. Chodak qishlog'i Chodaksoy daryosi vodiysida joylashgan. Qishloq to'rt ming yillik tarixga ega. Bunday ulug' yoshga qaramay, qishloq Markaziy Osiyo qishlog'ining an'anaviy shaklini saqlab qoldi. Farg'ona ekoturistik rayoni ekoturizmni rivojlantirishda landshaftlarning turli-tumanligi markazdagi cho'llardan tortib, to maftunkor tog' cho'qqilarigacha barchani o'ziga jalb etadi [9]. Tog'lardagi tez oqar va ba'zida kechuv qiyin bo'lgan daralarda raftlarda oqish (rafting), Janubiy Farg'onadagi balandligi 10 m keladigan, dam olayotgan tuyalarni eslatuvchi ekzotik relyef shakllariga hamda "Yozyovon davlat tabiat yodgorligi"dagi ajoyib tabiiy qum massivi (1994 yilda tashkil etilgan va maydoni 1,9 ming ga) piyoda turlar uyushtirish mumkin. Ko'ksuv vodiysida 120 yil avval vujudga kelgan, oq, kulrang qoyalar bilan o'ralgan toza, muzdek suvli ko'k va yashil ko'llar ham ekoturizm obyektidir [10].

Mamlakatimizning tabiiy hududlari hisoblangan suv omborlari, o'rmon xo'jaligi yerlarini o'rganib, xavfsiz yerlarida turistik zonalar tashkil etish uchun mahalliy tadbirkorlarni hamda xorijiy investrlarni jalb qilish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, Farg'ona viloyatida han cho'l hududlarida "safari" turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu haqda Prezidentning turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda ham alohida ta'kidlab

o'tildi. Shuningdek, yig'ilishda Farg'ona viloyati hokimi 5 ta tuman va 3 ta shaharni qamrab olgan "Oltin vodiya sayyohlik halqasi" ni tashkil etish borasidagi ishlarni so'zlab berdi [11].

Farg'ona vodiysining eng muhim ekoturistik hududlaridan Andijon viloyati ham tabiiy boyliklari bilan mashhur bo'lib, bu hududda ekoturizm va tabiatni o'rganish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Viloyatning tabiiy obyektlari mahalliy aholi va mehmonlar uchun dam olish va sog'lomlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Viloyatida tabiiy obyektlarda turizmni rivojlantirish uchun infratuzilmani yaxshilash, ekoturizm va ziyorat turizmini targ'ib qilish, shuningdek, yangi turistik kurort zonalarini yaratish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Andijon viloyatining tabiiy obyektlari turizmni rivojlantirish uchun katta potentsialga ega. Ekoturizm, qishki turizm, sog'lomlashtirish turizmi va madaniy turizm kabi yo'nalishlarni rivojlantirish orqali viloyat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shish mumkin. Buning uchun infratuzilmani yaxshilash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi choralar ko'rilishi zarur.

Namangan viloyatida ham boshqa sohalar qatorida iqtisodiyotning muhim bo'g'iniga aylanib borayotgan turizmni rivojlantirish bo'yicha har tomonlama kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va ular yillar davomida hayotga tatbiq etib kelingan. Jumladan, Chust tumanidagi G'ova, Sirdaryo va Norin daryosi bo'ylari, Nanay, Rezaksoy va boshqa ekoturistik obyektlariga sayyohlarning tashrifi yildan-yilga ortmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalarini doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroridan kelib chiqib, Yangiqo'rg'on tumanidan "Eskiyer", Chust tumanidan "Rezaksoy", Chortoq tumanidan "Chortoq" suv omborlari ekoturizm tashkil etish uchun suvni muhofaza qilish zonalarini doirasida yer uchastkalari berilgan [12]. Chust tumanining ham ekoturistik imkoniyatlari yuqori bo'lib, hozirgi kunda Chust tumanida ekoturistik mashrutlar: 1. Chust-G'ovasoy. 2. Chust-Buonamozor. 3. Mavlun Lutfiy nomli istirohat bog'i. 4. Toshqo'rg'on-Mashhad yo'nalishlari orqali olib borilmoqda [13].

Namangan viloyatida ekoturizm obyektlarini shakllantirish, ularning faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tomonidan viloyatdagi ekologik landshaft hududlari o'rganib chiqilib, 10 ga yaqin ekoturizm maskanlari uchun joylar tanlandi [14]. Bu hududlar viloyatning barcha tumanlarini qamrab olish orqali ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha maqbul obyektlar bo'lishi bilan bir qatorda, viloyat iqtisodiyotini yanada yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi dam olishini tashkil etish va salomatligini tiklashda muhim omil bo'ladi.

4. Xulosa.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, Farg'ona vodiysi tabiiy obyektlarining tarixiy-geografik tasnifi va ularning zamonaviy turizm rivojlanishidagi ahamiyati o'rganildi. Har bir guruhning turizm salohiyati tahlil qilindi va ularning ekologik barqarorlikni saqlagan holda zamonaviy turizmni rivojlantirishdagi roli belgilandi. Shuningdek, maqolada vodiyning tabiiy obyektlarini zamonaviy turizm dasturlariga integratsiyalash orqali hudud iqtisodiyotini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatildi. Ekoturizm, madaniy va tarixiy turizm yo'nalishlari tabiiy resurslar bilan uyg'unlashib, hududning xalqaro turizm salohiyatini oshirishga xizmat qilishi mumkinligi ta'kidlandi. Natijada, Farg'ona vodiysi tabiiy obyektlarining tarixiy-geografik tasnifi nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi, balki hududdagi turizmni barqaror rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi // <https://president.uz/uz/lists/view/781>.

2. Z. Ibragimova, M. Talabboyeva. Farg'ona vodiysi daryolari. "Ma'naviy barkamol yoshlar yangi O'zbekiston bunyodkori" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2024-yil 16-may. 679-682-betlar.

3. Nazarov A.A., Abdurahmanov S.T., Rahimov A.A., Qoriev M.R.* (Namangan davlat universiteti, O'zbekiston) Farg'ona vodiysida rekreatsiya resurslarining hozirgi holati va ulardan foydalanish imkoniyatlari. «Farg'ona vodiysida turizmni rivojlantirishning hududiy jihatlari va istiqbollari» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Farg'ona shahri, 2023-yil. 22-23 sentabr.
4. Amonov X., Umarova M. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti//. – Toshkent, 2003. - №23. – B. 61-62.
5. Xalmatova Sh.M. Farg'ona vodiysi o'simliklarning xilma-xilligi va uni asrash. ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/si.
6. Nig'matov A., Shomuratova N. O'zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi // Ekologiya xabarnomasi, 2-son, – Toshkent, 2007. – B. 45.
7. Farg'ona viloyati arxivi. F-1220, 3-ro'yxat, 31-jild, 210-varaq.
8. Farg'ona viloyati arxivi. F-1220, 2-ro'yxat, 20-jild, 45-varaq.
9. Matmurodov M. Ekoturizm. Ma'ruzalar matni. – Nukus, 2008. 80–bet.
10. A.N.Norchayev, T.B.Sadiqov, M.Z.Nurfayziyeva Mintaqaviy turizm. O'quv qo'llanma Toshkent. “IQTISODIYOT”- 2019. 90-bet.
11. Turizm sohasidagi ulkan imkoniyatlar va ulardan foydalanish bo'yicha vazifalar ko'rsatib o'tildi.// Yangi O'zbekiston gazetasi. 2022-yil 20-sentyabr, №193 (715).
12. Namangan viloyati hokimligining joriy arxivi. Namangan viloyati hokimining “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalari doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” 2018 yil 3 dekabrda 978-son karori ijrosi haqida”gi qarori, 2018 yil 19 dekabr, 863-son.
13. Kamolov B. Chust tumani o'ziga xos ekoturistik mashrutlar sifatida // Ekologiya xabarnomasi, 7-son, 2016.–B.48.
14. Najmiddinov Q. Namangan viloyatida 10 ta yangi ekoturizm manzili tashkil etiladi. // Xalq so'zi, 2020 yil 15 iyul.№148 (7650).



Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000